



## **SOBIQ ITTIFOQ DAVRIDA KATTAQO'RG'ON TUMANI AHOLISI TURMUSH TARZI**

**Sunnatillo Rashidov Rashid o'g'li**  
*Samarqand Davlat Universiteti*  
*ilmiy xodimi*  
*Tel: +998 94 669 72 36*

1921-1922-yillarda Turkiston jumhuriyatdagi 22 ta paxta tozalash zavodi o'z imkoniyatining 14,5 foizi darajasida ishlab, 339 ming pud (5624 tonna) tola olingan. Ana shunday og'ir sharoitga qaramasdan paxtachilikni tiklash uchun qattiq kurash olib borildi. Bosh paxtachilik qo'mitasi paxta ekinlarining kontraksiya usulini joriy qildi va paxta ekuvchilar uchun bevosita pul bilan hisob kitob qilish tizimi belgilandi.

1922-yilda hukumat bir pud paxtani uch pud g'alla bilan teng qilib belgiladi. Turkistonda milliy chegaralarning o'kazilayotgan davrda Kattaqo'rg'on uyezdining maydoni 4188 kv. vyorst bo'lgan. Uyezd 16 bo'lis, 75 qishloq jamoasi, 686 qishloq yer suv islohoti qattiqqo'llik bilan, shavqatsizlarcha o'tkaziladi. 1920-yil Kattaqo'rg'on uyezdi bo'yicha har gektar maydondan o'rtacha 4,64 sentnerdan paxta, 2,8 sentner bug'doy hosili olingan. Urug'lik, bug'doy, arpa ishchi hayvonlari hamda qurollari yetishmasdi. Paxtachilik ko'p zarar ko'rgan, sug'orish timi ham ishdan chiqqan edi. Ekin maydonlari qisqarib, paxta hosili kamayib ketgan, o'zaro urushlar natijasida o'nlab qishloqlar talangan edi.

Rossiyadan oziq-ovqat keltirish to'xtab qolganligi natijasida g'allaning narxi bir nacha barobar oshgan, chorvachilik sohasida ham yomon ahvol yuzaga keladi. Yangi tuzilgan hukumat aholini bunday nochor ahvoldan qutqarish maqsadida, dehqonlarga urug', g'alla, gazlama, ish hayvonlari bilan bir muncha yordam ko'rsatadi. Masalan, 1922-yilda Kattaqo'rg'on uyezdi aholisiga 15166 pud don tarqatilgan<sup>1</sup>.

Paxta ekkan dehqon bir desyatena maydondan 50 pud ( 8 sentner)dan hosil topshirsa unga har bir desyatena yer hisobiga 64 metr gazlama, 5,7 pud chigit berilgan.

Paxtakorlarga yengillik berish maqsadida sug'orish ishlariga yordam ko'rsatilgan, ssuda berish tashkil etilib, xo'jalik solig'idan ozod etilgan.

1924-yilga kelib Kattaqo'rg'onda 19 qishloq xo'jaligi tashkil etilib, ularga 13298 kishi a'zo edi. Kooperativ shirkatlar dehqonlarni kerakli jihozlar, o'g'it, urug'lik, chorva ozuqalari bilan ta'minlangan, dehqonlarga ish yuritishlari uchun qarz bergan.

<sup>1</sup>Sh. Abduhakimov. Kattaqo'rg'on tarixidan lavhalar. Toshkent. 2016.



1925-Errigatsiya sohasida ham bir muncha ishlar qilindi. 1923--yilda Kattaqo'rg'on uyezdida errigatsiya tizimlarini tozalash hashariga 45065 kishi, 217 arava, 1075 ot bilan qatnashgan. Sug'oriladigan maydonlar kengaytirilib, paxtachilikda hosildorlikni oshirishga e'tiborni qaratildi.

1926-yil Hukumat tonidan "Yer to'g'risida dekret" qabul qilinib, yerga pomishchiklarning hususiy mulkligi bekor qilinda, ularning mulklari udel, monastr, cherkov yerlari bulis yer komiteti hamda uyezd kenggashlari ixtiyoriga o'tkazildi. O'bekistonda agrar o'zgarishlar RSFRdan biroz keyinroq o'tkazildi, bu bir qator mahalliy sotsial-iqtisodiy xususiyatlariga bog'liq edi.

Kattaqo'rg'on tumanida 1927-yilda dastlabki kolhoz tuzildi. 1930-yilga kelib, Kattaqo'rg'on va qo'shni Qoradaryo tumanlarida 71 kolhoz tashkil etilib, ularga 4600 dehqon xo'jaligi (19769 kishi) 22 ming 874 gektar yeri bilan birlashadi. Tumandagi avtomarkazlardan atiga bir traktor bo'lib, besh oy davomida 31 gektar yer maydonini haydab bergan.

1927-yilning 13-sentabrida Damariq meliorativ shirkati tashkil etilib, unga Damariq suvidan foydalanadigan 3933 xo'jalik shirkat a'zosi bo'lgan. Bu shirkat 4466 gektar yer sug'orilgan. Shu yillar davomida eski suv inshootlarini tozalash, yangi sug'orish shohobchalarini qurish borasida katta ishlar olib borildi.

Dehqon xo'jaliklarini kallktivlashtirish O'zbekistonda ham og'ir kurashlar, siyosiy va iqtisodiy qiyinchilik, qonli to'qnashuvlar sharoitida o'tdi. 1929-yildan 1932-yilgacha o'zbek qishloqlarida ham sinfiy kurash avj oldi. Mulkdorlar, savdogar va ruhoniylar kolhoz tuzilishiga tish tirnog'i bilan qarshi turdilar. 1925-1928-yillarda yer-suv davlat mulki deb e'lon qilindi. Yerdan bepul foydalanish huquqi berildi. Dekritga muofiq barcha mehnatkashlarga jinsi va millatidan qat'iy nazar yer va suvdan foydalanishda teng huquq berildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Kattaqo'rg'on tumani shimoldan Qoradaryo tumani, sharq tomondan Pastdarg'om, janubdan Chiroqchi, g'arb tomondan esa Koson va Narpay tumanlari bilan chegaradosh bo'lib, hududi 2356 km. kv maydonni tashkil etgan. Tuman tarkibiga 12 qishloq kengashiga qarashli 165 qishloqdan iborat bo'lgan. Tumanda aholi soni shahardan tashqari 34900 kishi bo'lib jami ekin maydoni 72496 gektarni tashkil etgan. Shundan 60 ming gektariga bug'doy va arpa ekilgan. Sug'oriladigan maydon 4872 gektar bo'lib paxta maydoni 2496 gektar, sabzavot va poliz ekinlari 435, kartoshka 275, bog'lar 130, tokzor 6, tamaki 282 gektardan iborat bo'lgan.

Shahar hududidagi 5 jamoa xo'jaligi tarkibida 600 xo'jalik istiqomat qiladi. Tumanda ikkita MTS, 63 kolhoz, 2 ta savhoz bo'lib, ularda 282 traktor, 71 g'alla kombayni bo'lgan.



1941-yil 22-iyunda ikkinchi jahon urushi boshlandi. Urush tufayli erkaklarning ko'pchiligi frontga safarbar etildi. Natijada kolhozlarda mehnatga yaroqli kishilar kamayib, barcha ish xotin-qiz, qariya va o'smirlar zimmasiga tushdi.

Mamlakatning oziq-ovqat bilan ta'minlashning, asosiy og'irligi sharqiy tumanlar zimmasiga tushadi. Bu tumanlarda don ekin maydonlari ancha kengaytiriladi, yormabob donlar, qand, lavlagi, zig'ir, kungaboqar, tamaki yetishtirish o'zlashtiriladi. 1942-1943-yillarda don hosildorligi kamayadi. Kattaqo'rg'on tumanidagi 9 ta paxtakor kolhoz 1941-yili har gektar maydondan o'rta hisobda 23 sentnerdan hosil olgan bo'lsa, 1943-yilda 11,5, 1943-yilda 13,1, 1944-yilda 12,9 sentnerni tashkil etadi. Kolxozlarni yiriklashtirish to'g'risidagi qarorga asosan 1950-yilda Saroyqo'rg'on qishloq sovetiga qarashli kolxozlar birlashtiriladi.

Viloyat, shahar hamda tuman hududlarida ko'plab gidronimlar- soy, daryo, kanal, buloq, ariq, tog' va tekisliklar nomlari uchraydi. Zarafshon daryosi Zarafshon tog' tizmalarini muzliklaridan boshlanadi. Samarqand yaqinidagi Cho'ponota tepaligidanikkiga ajralib, shimoliy qismi Oqdaryo, janubiy qismi Qoradaryo nomi bilan ataladi. Xatirchi shahri yonida yana birlashib, yana Zarafshon nomi bilan davom etadi, Buxoro cho'llaridagi Dengiz ko'liga borib quyiladi.

Bu daryoning nomi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, Zar - oltin sochuvchi yoki "Zar keltiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Chunki qadim-qadimdan bobolarimiz suv juda qadirligini bo'lib, uni oltinga, zarga tenglashtirganlar. Uning uzunligi 781 km, havzasini kattaligi 41860 km.

Zarafshon XVIII asrdan boshlab shu nom bilan atala boshlagan. Ilgari bir necha nom, jumladan, Politemit, Notik, Rudimassar, Vodiy Us-Sug'a, Nahr-ul Buxoro, Daryoyi Ko'hak deb atalgan. Yunon mualliflari uni o'z tillarida Politemit (qadimgi yunon tilida "yuksak qadrligini", "yuqori martabali") deb ataganlar.

Strabonning yozishicha bu nomli dryoga Makedoniyaliklar qo'ygan. Bu haqida yunon tarixchisi gerodot (miloddan avvalgi 490-425) to'qqiz kitobdan iborat mashxur "Tarix" asarida to'xtalib o'tadi. Yunon geografi va tarixchisi Strabon (miloddan avvalgi 64-24 yillar) qalamiga mansub 17 kitobdan iborat "Geografiya" asarida Politemit (Zarafshon) daryosi haqida muhim ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan hisoblanadi.

Taniqli rus olimi V.L. Livishinning takidlashicha Politemit so'zi sug'dcha Namich (taniqli, shavkatli) ma'nosini anglatadi.

Ilk o'rta asrlarga tegishli Xitoy yilnomasi "Beyshi" (V-VII asrlar) da daryo nomi Nami ko'rinishida berilgan.

Demak Nami-Zarafshonning yana bir nomi.



Tarixchi Muhammad Narshaxiyning yozishicha qadimgi davrlarda daryo nomi Ro'di Mosaf bo'lgan, va shunday yuritilgan.

**Narpay kanali.** Uzunligi 90km bo'lgan bu kanal Sug'd davlati takibiga kirgan Kushon hokimligi (eramizgacha I-IV asrlar )davrida qazilgan. Abu Isoq Ishtaxriy (850-935) asarlarida keltirilishicha, Narpay juda ham qadimiy bo'lib, Darg'am, Sgoxrox, Mirzaariq kanallari bilan bir vaqtda qazilgan. "Naxr" suv, daryo, ariq va Pay oxiri degan ma'noni anglatadi. Naxripay vaqt o'tishi bilan Narpayga aylangan<sup>2</sup>.

Narpay kanali vositasida Narpay tumanida 18,6 ming gektar, Paxtachi tumanida 17,9ming gektar, Kattaqo'rg'on tumanida 4000 gektar undan quyuqroqda 1.2 ming, jami 42.2 ming gektar yer sug'orilgan. Kanal daryoga parallel ravishda Zarafshon daryosining g'arbiy tarmoqlari etaklari bo'ylab o'tgan. 1959 yilga kelib suv ombori Narpay kanaliga ulanadi. Shundan so'ng uning suv o'tkazish qobiliyati 70 metr kubga yetadi. Kanal yoqalab telefon aloqasi o'tkazilgan, gidroo'lchov inshootlari, qorovulxona va yo'llar qurilgan.

Kanal Zarafshon vodiysidagi qadimiy va yirik suv yo'llaridan biri bo'lgan. Kattaqo'rg'on shahri va uning yon atrofdagi tumanlar taraqqiyotida muhim o'rin tutgan.

1923- yilda Narpay markaziy kanalini qayta qurish loyihasi tuzildi. U suv taqsimotini tartibga soladigab mustahkam inshootlarga ega bo'lmaganligi sababli ayrim quloqlarini qum bosib qolar, natijada ko'p yerlar botqoqlashib va ajralib ketardi. Quyi qismida joylashgan ekin maydonlariga esa suv kelmay qotib qoladi.

Kanal haddan tashqari yigirib olganligi uchun ham ko'proq bo'lgan. Ortiqcha suvni tashlab yuborish inshooti bo'lmaganligidan kuchli yog'ingarchilik va sel oqimi undan toshib chiqib, ekin maydonlarini bosib, jarliklar paydo qilgan.

Narpay kanali kattaqo'rg'on shahridan 02 kilometir sharqda otadigan qoradaryo ortacha 29 kilometrgacha suv oladi. Uning uzunligi hozirgi kunda 112 kilometir bo'lib zarafshonning asosan chap tomonidan yerlarni sugoradi. Qayta ta'mirlash natijasida egri bugri joylari to'g'rilanadi va chuqurlashtiriladi. Suv o'tkazish qobiliyati qariyb 50 foizga ortadi. Oldin 370 joyda tarqoq holatda bo'lgan suv taqsimlash llari qisqartirilib 41 taga keltiriladi.

1938-yilda kanal yana qayta ta'mirlanadi. Natijada birgina Kattaqurgon tumanida paxta hosildorligi 7 sentnerdan 20.4 senter ga ko'tariladi. 1964-yilda Miyonqol-Xatirchi markaziy kanali qurilishi boshlandi. Kanalning uzunligi 34 km bo'lib sekundiga 60 kubometr suv o'tkazish imkoniyatiga ega. Kanada to'rtta tugun inshooti quriladi. Uchta tugundan G'azara, Qilichobod va Nasrobot ariqladi suv oladi.

<sup>2</sup> I. Bekmurodov. Kattaqo'rg'onning qisqacha tarixi. Samarqand,"Zarafshon" nashriyoti. 1993-yil.



Kanalning Kattaqo'rg'on suv ombori suv chiqarish kanali bilan kesishgan joyida suv tugunni quriladi. Kaman o'sha paytda kattaqurgon tumanining 18.6 ming Paxtachi tumanining 17.9 ming ga maydonni hamda Navoiy viloyatining Narpay davlat xo'jalik ekinzorlarini suv bilan ta'minladi.

Narpay agar 1929-yilda daryodan sekundiga 25 kubometr suv olib 17 ming gektar yerni solgan bolsa 1908 yilga kelib sekundiga 48 kubometr suv bilan 32,9 ming gektar yerni sug'orish imkoniyatiga ega bo'lgan.<sup>3</sup>

1971 yilga kelib suv sig'imi yiliga 6 kubometr bo'lib, yiliga 52440 gektar yerni sug'organ. 1909 yilda ishlab chiqarilgan loyihaga muvofiq Narpay ning suv sig'imi sekundiga 120 kubometr bo'lib, 76.7 ming gektarni tashkil etgan.

### **Kattaqo'rg'on sanoati**

Kattaqo'rg'on 1927-28 yilga kelib mayda korxonalar birlashib yiriklashadi.

1929-yilda bitta paxta tozalash korxonasi bitta mahorka hamda 186 elektr stansiyasi ishga tushiriladi. 1929-yilda 28606 kilovattli elektor quvvatli stansiya foydalanishga topshiriladi. 1930-yilda ikki xalqali g'isht zavodidagi pech ishga tushadi. 1932-yilda yirik novvoyxona qurilib keyinchalik non kombinatiga aylantiriladi. 1932 yilda bir sutkada 40 tonna un ishlab chiqaradigan tegirmon ishga tushadi. Shu yil shahar bosmaxonasi ham tashkil etiladi. 1931 yilning sentyabrda shahar va tuman uchun Kattaqo'rg'on haqiqati gazetasida chiqa boshladi. Shu yili Narpay arig'i hamda Qora daryoda ko'priq quriladi.

1930 - 35 yillarda shahardagi kosib va hunarmandlar silikatlar tuzadi. Keyinchalik ular ham ixtisoslashib ham birlashib yeri shirkatlar vujudga keladi. Ular bazasida 1940-yilda shahar mahalliy sanoat kombinati undan so'ng iste'mol mollari fabrikasi paydo bo'ldi. 1963 yil 7-noyabrda osiyodagi eng yirik yog' eksport zavodi ishga tushiriladi.

1937-yilda sut-moy zavodi, 1941-yilda motor ta'mirlash zavodi barpo etiladi. 1908-yili kelib shahar aholisi 25000 kishiga yetadi. Sanoat korxonalarida ishchilar soni 12 foizga ortdi. Agar 1913 yildayoq zavodda 6 nafar o'zbekistonda gan bolsa, 1942 yilda ular soni 112 kishini tashkil etadi. Paxta tozalash zavodida mahalliy aholi 245 kishidan iborat bo'lgan.

1942-yilda ijtimoiy madaniy sohalarda 4 million 743 ming sarflandi. Jumladan xalq ma'ortiga 2 million 40 ming so'm sogliqni saqlash ishlariga 2 million 545 ming sum sarflandi. Shahar obodonligi ga 280 ming so'm sarflandi.

1941 - 1945 yilda ikkita orta yettita to'liqsiz o'rta maktablarda 4 butun 5 mingga yaqin o'quvchi ta'lim tarbiya olgan. Maktablarda 128 o'qituvchi ishlagan 8 bohchada 335 nafar bola tarbiyalangan.

<sup>3</sup> "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 4-kitob, Toshkent - 1994 -yil.



4 klub 65000 nusxa kitob 4 kutubxona bir teatr, bir kinoteatr bo'lgan.

1936 - 1908 yillarda paxta tozalash zavodi qayta jihozlanadi. Zavodda 660 ot kuchiga ega bo'lgan dvigatel o'rnatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Abduhakimov. Kattaqo'rg'on tarixidan lavhalar. Toshkent. 2016.
2. I. Bekmurodov. Kattaqo'rg'onning qisqacha tarixi. Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti. 1993-yil.
3. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Zarafshon o'zbeklarining xo'jaligi va ijtimoiy turmushi. Toshkent. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.
4. S.R.Rashidov "Kattaqo'rg'on tumanidagi joy nomlari va urug'lar". Journal of universal science research. ISSN (E): 2181-4570, 2023.
5. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 4-kitob, Toshkent - 1994 -yil.

